

TALABALAR JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOG‘LOMLASHTIRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH.

A.A.Tursunov

**Andijon davlat universiteti Fakulteti
Fakultetlararo jismoniy madaniyat
kafedrasi dosenti.**

Jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning bir qismi bo‘lib, xalq sog‘ligini mustahkamlash, jismonan rivojlantirish va barkamol inson qilib tarbiyalashning qadimiy va zamonaviy qadriyatlarni egallashning ijodiy faoliyat shakli hisoblanadi.

Jismoniy madaniyat moddiy va ma‘naviy qadriyatlar muvofiqligida namoyon bo‘ladi. Moddiy ne‘matlar sifatida sport inshootlari, sport jixozlari va anjomlari, sport kiyimlari hamda tibbiy ta‘minotni o‘z ichiga oladi. Ma‘naviy qadriyatlar sport turlari va o‘yinlarining qiziqarliligi, ommaviylik, targ‘ibot va tashviqot ishlari, ommaviy axborot vositalarida yoritilish, jismoniy tarbiya va sport tizimining faoliyati, yuqori malakali sportchilar hamda olimpiya zaxiralari tayyorlash tizimi, yurtdoshlarimizning xalqaro sport musobaqalardagi muvaffaqiyatlari, mamlakatimizda xalqaro sport masobaqalari va tadbirlarini tashkil etilishida aks etadi.

Jismoniy madaniyat aholining muloqotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga, maroqli dam olish hamda ko‘ngil ochish, o‘zligini jamiyatda va kasbiy mexnat faoliyatida namoyon qilishga katta yordam beradi.

Aholi va yoshlarning ijtimoiy hayoti, ta‘lim tizimi, mexnat faoliyati, kun tartibini tashkil etish, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish jarayonlarida jismoniy madaniyat ta‘lim va tarbiyaviy, sog‘lomlashtiruvchi, iqtisodiy va ma‘naviy tarbiya vazifalarini bajaradi. Bu bilan jamiyatda jismoniy madaniyat qadriyatlarini aholi va yoshlar o‘rtasida ommaviylashtirish hamda targ‘ibot va tashviqot qilishning yo‘nalishlari - jismoniy madaniyat va sport harakatlari vujudga keladi.

Jismoniy madaniyat jamiyat madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lib, uning yutuqlarining mazmuni, maxsus vosita va uslublar yordamida inson sog‘ligini mustahkamlash, jismonan rivojlantirish hamda ma‘naviy etuk qilib tarbiyalashdan iborat bo‘ladi. Jismoniy madaniyat ikki qismdan tashkil topgan. Birinchi qism - jismoniy tarbiya va sport sog‘lomlashtirish jarayonlarining barcha uslub va vositalari inson salomatligini mustahkamlash, jismonan rivojlantirishga qaratilgan. Ikkinchi qism esa yoshlar va aholi o‘rtasida jismoniy tarbiya va sport sog‘lomlashtirish tadbirlarini ommaviylashtirish, aholini ma‘naviy etuk qilib tarbiyalashdan tashkil topadi.

Jismoniy madaniyat insonni jismoniy rivojlantirish, sog‘ligini mustahkamlash bilan bir qatorda uning ma‘naviy, axloqiy, estetik tarbiyasini amalga oshirish, dunyoqarashlarini kengaytirishni ta‘minlaydi. Albatta bu jarayonlarda shug‘ullanuvchilar va tarbiyachilarning oldiga qo‘yilgan vazifalardan jismoniy tarbiya va sport sog‘lomlashtirish tadbirlarining maqsadlari hamda yo‘nalishlari shakllanadi.

Jismoniy madaniyat - madaniy va ma‘naviy taraqqiyotning namunasi bo‘lib hisoblanadi. Jismoniy madaniyat taraqqiyoti va rivojlanishiga geografik va iqlimiy, mexnat va turmush tarzi, hayot sharoitlari, ishlab chiqarish va sanoatning taraqqiyoti, ijtimoiy va iqtisodiy omillar katta ta‘sir ko‘rsatadi. Jamiyatda jismoniy madaniyat darajasi, aholi va yoshlar o‘rtasida

jismoniy tarbiya va sport ishlarining ommaviyligi, bolalar va o‘quvchi talabalar ta‘lim tarbiya jarayonlarida jismoniy tarbiya vositalaridan unumli foydalanish, aholining jismoniy barkamolligi va salomatligining ko‘rsatkichlari, xalqning sport sohasidagi yutuqlari, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining yuqori malakalari va tajribalari, jismoniy tarbiya va sportni targ‘ibot va tashviqot qilish, ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiya va sport sog‘lomlashtirish tadbirlariga oid mavzularni ko‘tarilishi, mamlakatda jismoniy tarbiya va sport tizimini takomillashtirishda ilmiy nazariy yondoshuvlarning tashkil etilganligi bilan baholanadi.

Tarixdan bizga ma‘lumki insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida jismoniy madaniyatni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilgan. Ibtidoiy jamoa, onalik va otalik urug‘chilik davrlarida jismoniy tarbiya hayotiy zarur harakatlar yugurish, sakrash, emaklash, oshib o‘tish, tirmashib chiqish, suzish, uloqtirish mashqlarini bajarish va o‘rganish vositasi bo‘lgan. Ov harakatlariga o‘rgatish, harakatli o‘yinlar, bellashuvlar tashkil etish ham jismoniy tarbiya hisobiga amalga oshirilgan. Quldorlik tuzumiga kelib jismoniy tarbiya harbiy san‘atning asosini tashkil etgan. Qo‘shinlarning, jangchilarning jangovar tayyorgarlik vositalari sifatida harbiy jismoniy tarbiya mashqlaridan keng foydalana boshlangan.

Davrlar taraqqiyoti bilan jismoniy tarbiya tizimi shakllanib kelgan. Jismoniy tarbiya mutaxassislari, sport murabbiylari kasblari vujudga kelgan. Xalqlar orasida ommaviy sport bayramlari, musobaqalar tashkil etila boshlangan. Bunday musobaqalardan olimpiada o‘yinlari, Rim o‘yinlar, barcha millatlarning an‘anaviy sport bayramlarini misol qilish mumkin. Musobaqalar va bayramlarga xalqning etuk namoyondalari, allomalar va faylasuflar, shohlar va shaxzodalar oddiy xalq bilan elkama elka ishtirok etgan. Ulardan Rim imperatori YULiy Sezar pankration (qo‘l jangi va kurash) musobaqalarida ishtirok etgan. Buyuk tabib Gippokrat, faylasuf Suqrot, dramaturg Sofokl va ko‘plab mashhur insonlar greklarning olimpiada o‘yinlarida ishtirok etganlar.

Dunyo taraqqiyoti bilan hamnafas holda jismoniy madaniyat ham taraqqiy etib kelmoqda. O‘rta asrlardan boshlab jismoniy madaniyat nafaqat harbiy jismoniy tayyorgarlik vositasi balki xalqni jismoniy barkamolligini ta‘minlash, ma‘naviy tarbiyasini amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qila boshlagan.

Jismoniy tarbiyaning insonparvarlik mohiyati talabalar va xalq sog‘ligini mustahkamlash va jismoniy madaniyatini yuksalishiga o‘z xissasini qo‘shish bilan birga, sog‘lom turmush tarziga qiziqishlarini ortirish, jismoniy tayyorgarliklarini takomillashtirishdan iborat bo‘ladi. Oliy ta‘lim tizimida jismoniy tarbiya talabalarda nafaqat sog‘lom turmush tarzi talablarini shakllantirish, jismoniy fazilatlarini rivojlantirish, qolaversa sport turlari bo‘yicha texnik va taktik tayyorgarliklarga ega bo‘lish, sog‘ligini mustahkamlash hamda ruhiy va ma‘naviy axloqiy sifatlarini shakllantirishga katta yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Евсеев Ю.И. Физическая культура: учебное пособие. М: 2012.
2. Вайнер Э.Н. Лечебная физическая культура: учебник. М.: 2013.
3. Рахмонов Ф.П. Жисмоний тарбия ўқитувчиси фаолияти. – Тошкент 2018.